

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2023
5-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274



*Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal.
1996-yilda tashkil etilgan.*

Tahrir hay'ati raisi:

Sh.U.Yakubov

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi direktori

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari:

M.X.Esanov

Bosh muharrir:

T.Ahmedov

Bosh muharrir o'rinbosari:

A.A.Sabriyev

Tahrir hay'ati a'zolari:

L.R.Zaripov

A.A.Dadasheva

Sh.A.Rasulov

M.M.Inagamova

S.Q.Maxsumova

S.S.Samandarova

M.Q.Sultonov

S.S.G'oziyev

O.N.Toshpulatov

Jamoatchilik kengashi a'zolari:

Q.X.Abduraxmanov

Sh.T.Qudratxo'ja

G.Sh.Rixsiyeva

Sh.S.Sirojiddinov

R.I.Xolmurodov

A.I.Toshpulatov

N.M.Jabborov

M.A.Raxmatullaev

T.Z.Teshabayev

Dizayner:

S.L.Musamedov

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

Alisher Abdullayev.

Talabalarni turarjoy bilan ta'minlash tizimini raqamlashtirish jarayonlari 6

Munira Raupova.

Bo'lajak o'qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirishda "Edutainment" zamonaviy ta'lim texnologiyasi imkoniyatlari 9

Zuxriddin Absamatov.

Bo'lajak muhandislarning axborotli-intellektual ko'nikmalarni rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar 12

Махсетбай Айгимбетов.

Актуальные проблемы использования народных педагогических возможностей в современных условиях 16

Madina Fayzullaeva.

Differences between distance education and traditional education 19

G'ulom Shermatov.

O'zbekiston Respublikasi hududida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish metodikasi 23

Махсуда Тиллашайхова.

Олий ўқув юртлари учун ахборот-коммуникация технологияларига асосланган масофавий таълим тизими ва унинг ташкилий тузилмаси 26

Samijon Xamroyev.

Talabalarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy va pedagogik asoslari 29

Бахтияр Абдикамалов, Райгул Хожаназарова.

Изучение модели бора-зоммерфельда в процессе преподавания атомной физики и квантовой механики 33

Shaxnoza Mamatkulova, Venera Kamburova, Azadaxan Imamxodjayeva, Nodira Rahmatova, Orastabonu Isomiddinova.

RNKi g'o'za linyalarining lipid miqdorini qiyosiy aniqlash 36

Zafarjon Xamraqulov.

Jinoyat huquqi fanining ijtimoiy va yuridik fanlar tizimidagi o'rni 39

Feruza Qo'chqarova.

Bo'lajak o'qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirish mexanizmlari 43

Фахриддин Болтаев.

Харбийлаштирилган олий таълим муассасалари курсантларига ватанпарварлик руҳини сингдиришда таълим-тарбиянинг ўрни 46

Nargiza Mirjanova.

Professional ta'lim tizimi mutaxassislarini tayyorlashda differensial yondashuvning ahamiyati 50

Sanjarbek Sayfetdinov.

Urologiya fani o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashni takomillashtirish 53

Sulurxon Raximova.

Mahmud Koshg'ariy asarlarida iboralar tahlili 55

Элбекжон Олимов.

Ўқитувчи — халқнинг ифтихори, давлатнинг ишончи ва таянчи 128

Mehriniso Umarova.

Qoidali o'yinlarda bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari 131

Shokirjon Doniyorov.

O'quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonini tashkil etishda pedagogning kasbiy rivojlanishining muhim ahamiyati 135

Нодира Кушниева.

Олий ўқув юртларида инглиз тилини кластерли ёндашув асосида ўқитиш технологияси 138

Shavkat Shomirzayev.

Talaba va yoshlarning ta'lim jarayonidagi ijtimoiy moslashuvining mazmun-mohiyati 141

Zaxro Umarova.

Raqamli ta'lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishda raqamli kontentlardan foydalanish: tajribalar tahlili 144

Fakhritdin Khakimov.

Improving accounting for long-term assets in accordance with international standards 147

Наргиза Анварова.

(Сравнительно-сопоставительный анализ русских гласных фонем <И> ([И]), <У> и узбекских (I), (U)) 150

Shukur Po'latov.

Ta'limda klasterli yondashuvni tashkil etishning zaruriyati va ahamiyati 153

O'g'ilxon Asqarova, Dilfuza Sobirova.

Tibbiyot ta'lim muassasalarida "Yuqumli kasalliklar" fanini o'qitishning o'rni va ahamiyati 156

Шерзод Расулов, Элёр Мойлиев.

Олий таълим муассасаларини молиялаштиришда бозор механизмларини жорий қилиш ҳамда такомиллаштириш 160

Feruza Kadirova.

Veb-texnologiyalar va mobil ilovalar ingliz tilini o'qitishda samarali vositalardan biri sifatida 164

Makhmudhodzha Isaev.

Features of the cvc structure of ptsi - si<pt>-m in a wide range of temperatures 168

Хуснидаҳон Хўжаматова.

Мактабгача ёшдаги болаларнинг ижтимоий онгини шакллантиришнинг методик тизими 171

Sarvinoz Salimova, Nargiza Axmedova.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy-metodik faoliyatini takomillashtirish asoslari 174

Миркомил Атавуллаев.

Ижтимоий давлат тушунчаси ва унинг социосубстанционал моҳияти 178

Dilfuzaxon Zakirova/

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning madaniy kompetensiyasini rivojlantirish 182

Елимбет Султанов.

Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак қишлоқ хўжалиги мутахассисларини касбий фаолиятга тайёрлаш методикасини такомиллаштириш масалалари ҳақида 185

Arofat Khudayberdieva.

Foreign models assessments qualities higher education 189

Gulkhan Genjemuratova.

Integrativ yondashuvlar asosida talabalarning kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish usullari va shakllari 195

Сарвар Иброхимов.

Глобаллашув жараёнида “глобал фуқаролик жамияти парадигмаси”ни ривожлантириш концепциялари 198

Feruza Tadjiyeva.

Ta'limda zamonaviy elektron adabiyotlarning roli 202

Azamat Sattarov.

Mobil o'qitish texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida qo'llash 205

Mirzoxid Yunusov.

Kimyo texnologiya fanidan “Sanoatda suvni tayyorlash” mavzusini noan'anaviy usulda o'qitish 208

Gulnoza Siddikova.

Ways to establish equal relationship between teacher and student in music lessons 212

Hakim Rasulov.

Huquqiy madaniyat siyosiy-huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida 214

Жанар Коккозова.

Бўлажак ўқитувчиларни инновацион ёндашув асосида методик фаолиятга тайёрлаш педагогик муаммо сифатида 218

Тимур Сабилов.

Основные принципы развития креативного потенциала учителей на основе андрагогического подхода 221

Sitora Xabilova.

Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida 223

Жўрабек Жовлиев.

Бошланғич синф ўқувчиларини миллий ва умуминсоний кадриятлар руҳида тарбиялаш 227

Elza Salakhova.

Intercultural communication competence in elt classes: hidden challenges of english language teaching 230

Ғулом Саматов.

Академик лицейларда квант физикаси асосларини ўқитишда ўқувчиларда илмий дунёқарашни шакллантириш 233

Шахноза Аскарлова.

Роль языковой интерференции при изучении третичного языка ... 235

Махмудходжа Исаев.

Исследование неоднородности поверхностного слоя диффузионно-легированного кремния атомами хрома 238

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 08.05.2019 йилдаги ПҚ-4312-сон
2. Зербеева В.А. Дошкольное образование за рубежом: история и современность. – М.: Сфера, 2007. – 123 с.
3. Прочная основа. Образование и воспитание детей младшего возраста: всемирный доклад по мониторингу ОДВ. – М.: ЮНЕСКО, 2007. – 18 с.
4. Крулехт М.В. Новые формы дошкольного образования как средство социально-педагогической викариологии // Социальная работа: проблемы и перспективы: материалы 1-й Межвузовской научно-практической конференции (22 марта 2012 г.). СПб.: СПбГУП, 2012. – С. 35-43.
5. Ўзбекистон республикаси мактабгача таълим ташкилотлари учун давлат ўқув дастури/такомиллаштирилган иккинчи нашр/Дастур муаллифларидан: Микаилова Улвия ЮНИСЕФ халқаро маслаҳатчиси Шанкар Дипа ЮНИСЕФ таълим секцияси раҳбари Исмоилова Муаззам ЮНИСЕФ маслаҳатчиси Муаллифлар: Грошева И.В., Мирзиёева Ш.Ш., Евстафиева Л.Г., Махмудова Д.Т., Набиханова Ш.Б., Пак С.В., Назарова В.А., Исхакова М.Р., Абдуназарова Н.Ф. Т., 2022. – 7-8-б.
6. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результативно-селевая основа компетентного подхода в образовании. Авторская версия. – М., 2004. – 42 с.
7. Педагогика: энциклопедия. II жилд. жамоа. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2015. – 376 б.
8. Ясвин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. Изд-е 2-е, испр. и доп. – М.: Смысл, 2001. – 366 с.
9. Солодянкина О.В. Социальное развитие ребенка дошкольного возраста. – М.: АРКТИ, 2006. – 88 с.



КОМПЕТЕНСИЯВИЙ YONDASHUV ASOSIDA KASBIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI

Sarvinoz Salimova,

Buxoro davlat pedagogika instituti “Tabiiy fanlar kafedrası” dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Nargiza Axmedova,

Buxoro davlat pedagogika instituti
“Tabiiy fanlar” kafedrası 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kunda jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to‘la javob beruvchi, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo‘yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi pedagog shaxsni shakllantirishning nazariy asoslari yoritilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun egallanishi mumkin bo‘lgan pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan kompetensiyalar majmuasi mazmuni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy kompetentlik, kompetentlik, nazariya, pedagogika, metodika.

Аннотация

В данной статье описаны теоретические основы формирования педагогической личности, полностью соответствующей требованиям реформ, реализуемых сегодня в обществе, и эффективно работающей на уровне требований к квалификации специалистов на рынке труда. Выделено содержание совокупности компетенций, определяющей уровень развития педагогической компетентности, которую можно приобрести будущим учителям.

Ключевые слова: Профессиональная компетентность, компетентность, теория, педагогика, методология.

Annotation

This article describes the theoretical foundations of the formation of a pedagogical personality that fully meets the requirements of the reforms being implemented in society today and works effectively at the level of qualification requirements for specialists in the labor market. The content of the set of competencies that determines the level of development of pedagogical competence that can be acquired by future teachers is highlighted.

Keywords: Professional competence, competence, theory, pedagogy, methodology.

Xalqaro tajribaga ko'ra, pedagoglarning kasbiy kompetentligi, jumladan, ta'lim jarayonini, amalga oshirishning eng maqbul metodlarini (multilevel interactive education), samarali modellarini ishlab chiqish, innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish va amalga oshirishning metodik ta'minotini takomillashtirishga alohida ehtiyoj tug'ilmoqda. Ta'lim jarayonini tashkil etishda ta'lim shakllari va metodlarini modernizatsiyalash, kasbiy kompetentlikni shakllantirish usullarini, ilmiy asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, oliy ta'limda mutaxassislarini kasbiy kompetentligini shakllantirishning zamonaviy metodik tizimini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning pedagogik sharoitlarini belgilash, o'quv materiallarini mazmunan takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Mazkur zaruriyatdan kelib chiqib, kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalarini joriy etish, kasbiy fanlarni o'qitish metodikasi va didaktik vositalarini ishlab chiqish talab etiladi.

Kompetent yondashuv oliy ta'limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada): "bilim – ko'nikma – malaka"ni oltita birlik (sekstet): "bilim – ko'nikma – malaka – amaliy faoliyat tajribasi – kompetensiya – kompetentlik" tarzida tahlil qilish talab etiladi [1]. Dastlab "kompetensiya" tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. "Kompetensiya" (lot. "erishaman", "to'g'ri kelaman") — subyektning maqsadni qo'yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "kompetensiya" tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat bilan bog'liqlikda bayon etilgan. Biroq umumiy o'rta ta'lim bilan bog'liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo'lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjud.

Kompetentlik — biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati.

Kasbiy kompetentlik — mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir [2, 32].

L.M.Mitina pedagogik kompetentlik deganda, predmet haqidagi bilimlar, o'qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko'nikma va malakasi, shuningdek, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg'un birlashishini tushungan [2, 54].

U pedagogik kompetentlik tuzilmasida quyidagi uch-

ta tashkil etuvchini ajratgan: faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy. L.M.Mitina tomonidan taklif etilgan pedagogik kompetentlikni tuzilmalashtirishdan kelib chiqqan holda, biz bo'lajak mutaxassislar uchun egallanish darajasi pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan quyidagi kompetensiyalar majmuasi yetarli va zarur deb hisoblaymiz:

- faoliyatli yoki maxsus kompetensiya (bilim, ko'nikma, malaka va pedagogik faoliyatni amalga oshirishning individual usullari);

- shaxsiy yoki kasbiy kompetensiya (kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini amalga oshirishga oid bilim, ko'nikma va malakalar);

- kommunikativ kompetensiya (pedagogik faoliyatni ijodiy amalga oshirishga oid bilim, ko'nikma va malaka).

Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to'liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo'lavermaydi, sababi, ba'zilar bilimlarni amalda qanday qo'llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo'lib qolaveradi [3, 28].

Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

- maxsus pedagogik kompetensiya;

- pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lish. Bundan tashqari, pedagogning o'z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o'z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog'liq;

- ijtimoiy pedagogik kompetensiya;

- ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko'nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik;

- bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan;

- shaxsiy pedagogik kompetensiya;

- bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo'lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o'sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir [4-5].

Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo'lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir.

O'qituvchining kasbiy kompetentlik sifatleri:

- o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish;

- ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash, qayta aloqani o'rnatish;

- axborot kommunikatsiya texnologiyalarini bilish;

- o'z ustida ishlash;

- pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish;

- o'z fanini mukammal bilish;

- ta'lim muhitiga yangilik kiritishi.

Kasbiy kompetentlikning tarkibiga kasbiy faoliyatdagi kompetentlik, kasbiy muloqotdagi kompetentlik, mutaxassisning o'z kasbini namoyon eta olishdagi kompetentligini kiritish mumkin.

A.A. Derkach tomonidan kasbiy muloqotdagi kompetentlikning:

– kommunikativlik yoki muloqotchanlik kompetentligi (kasbdoshlar bilan muloqot qila olish qobiliyati),

– ijtimoiy-perseptiv kompetentlik (boshqa kishilarni idrok qilish va baholay olish qobiliyati), differensial va psixologik kompetentlik (insonlar o'rtasidagi individual psixologik tafovutlarni farqlay olish),

– diagnostik kompetentlik (boshqa kishilarga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganish qobiliyati),

– axloqiy kompetentlik (shu kasb taqozo etadigan odob-axloq normalariga rioya qilish),

– empatik kompetentlik (jamoa a'zolariga hamdard bo'la olish, ularni to'g'ri tushunish va boshqa tarkibiy qismlari ajratib ko'rsatilgan [6].

Mutaxassisning ijtimoiy-perseptiv kompetentligi xususiyatlarining tuzilishi:

– boshqa kishilarni idrok qilish, tushunish va baholashning aniqligi;

– ijtimoiy subyektlar bilan tizimli munosabat o'rnatish olish qobiliyatining mavjudligi;

– idrok qilinayotgan shaxsning xulq-atvori va xususiyatlarini fikran adekvat tarzda modellashtira olish;

– shaxslararo baholash jarayonida turli mezonlardan foydalana olish va boshqalar.

Bo'lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish uchun, avvalo, kuzatuvchanlik xususiyatining rivojlanishiga, ya'ni perseptiv, kognitiv, reflektiv, empativ, motivatsion va prognostik jihatlarining taraqqiy etishiga e'tibor qaratish lozim. Pedagogik faoliyat va muloqot jarayonida ijtimoiy-perseptiv kompetentlikka ega bo'lib borish uchun mutaxassis o'zida insonparvarlik, ijtimoiy-reflektiv, bilim hamda ko'nikmalar, ijobiy kasbiy "Men" siyмосi, ba'zi shaxsga xos sifatlar (intellekt, iroda, empatiya, kuzatuvchanlik, mehribonlik, hissiy bag'rikenglik va boshqalar)ni shakllantirishga oid mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi maqsadga muvofiqdir [7, 68].

Pedagogik-psixologik seminar-trening, ish o'yini, mahorat darsi va turli amaliy mashg'ulotlarga jalb qilish, malakaviy amaliyotning rolini oshirish, har bir talabaga o'zining pedagogik faoliyatga xos imkoniyatlari va mahoratini namoyon etishi mumkin bo'lgan qulay sharoitlarni yaratib berish orqali unda ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni shakllantirish mumkin. Buning uchun nafaqat shu sohaga oid bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi, balki insonlar bilan muloqot o'rnatish texnikasini egalash, motivatsion sohani rivojlantirish, psixologik bilimdonligini oshirib borish, kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorgarlik ko'rib borish lozim.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi, iroda-viy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy

ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish layoqatlarining o'zaro bog'liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi.

Yevropa davlatlarida shakllangan an'anaga muvofiq kasbiy malaka mutaxassisning kompetentligi, uni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tizimi esa — bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi.

Bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

– zamonaviy talablarga javob bera oladigan me'yoriy va o'quv-metodik hujjatlar (davlat ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, namunaviy o'quv dasturlari, ishchi dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar)ning mavjudligi;

– ilmiy pedagogik xodimlar (professor, dotsent, o'qituvchi, malakali o'quv ustalari, texnik xodimlar) ning bilim, ko'nikma va malakalarining yuksakligi, kasbiy kompetentlik darajasining yetarlicha shakllanganligi hamda ilmiy salohiyatga ega bo'lishi;

– o'quv jarayonining moddiy-texnik (o'quv binolari, o'quv auditoriyalari, o'quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televideniye, kompyuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-uskunalari, audio, video, multimedia, trenajyorlar, kinoprojektorlar, diaproyektorlar, videoprojektorlar, texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokozolar) jihatdan yetarlicha ta'minlanganligi;

– ijtimoiy va o'quv-texnologik jihatdan qulay muhit (o'qituvchilar, talabalar, rahbarlar hamda talabalar, shuningdek, talabalarining o'zaro munosabatlari mazmuni, yo'nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar) yaratilganligi;

– tashkiliy hamda o'quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo'lga qo'yilganligi.

"O'qituvchining kasbiy kompetentligi" tushunchasiga berilgan ta'rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: O'qituvchining kasbiy kompetentligi — pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo'lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi.

Buning uchun u:

– ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi;

– ijodiy izlanishlarning samaradorligi o'qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini esda tutishi lozim.

Funksiyalarni to'g'ri bajarish uchun pedagog kompetentlik va kompetensiya tushunchasini bilishi, hartomonlama rivojlanib, kasbiy o'sishi uchun qaysi yo'nalishda harakatlanishini bilishi kerak. Professionallik va kom-

petentlik bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, har xil ma'noga ega bo'lgan atamalardir. Professionallik deganda nafaqat ma'lum bilimlar, balki mehnatga bo'lgan munosabat, ishning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiqaradi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi [8, 47]. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, shu bilan birga, ularni qo'llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin.

Ko'p bosqichli ta'lim tizimida, yangi standartlar va dasturlar doirasidagi ta'lim jarayonini eskirgan uslubiyat bo'yicha olib borilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ta'lim tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohotlarni respublika pedagoglari ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quv jarayoniga qo'llash bilan mustahkamlashlari zarur. Avval ta'kidlanganidek, buning uchun pedagoglarimizni o'quv jarayoniga texnologik yondashuvlarini o'rgatish talab etiladi, bu esa pedagogik texnologiyadan foydalanishdan tashqari, uni O'zbekiston madaniyati, an'analari va tajribasi bilan boyitishga olib keladi.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi. Maqsadga yo'naltirilganlik, oraliq natijalarni tashxisli tekshirib borish, ta'limni alohida o'qitish lavhalariga ajratish kabi usullar hozirgi kunga kelib qayta-qayta takrorlash mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyasi g'oyasida mujassamlangan.

U asosan o'z ichiga quyidagi omillarni oladi:

- ta'limda umummaqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umummaqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- o'quvchilarning bilim darajasini dastlabki (tashxisli) baholash;

Ta'limga texnologik yondashuv. Tarbiyalash texnologiyasi — nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay, rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni, tarkibini emas, balki bu sohadagi hukumat ishlab chiqqan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi [9]. Shu bois professor-o'qituvchilar uchun hartomonlama rivojlangan yuqori intellektual va ma'naviy barkamol fuqaro shaxsini shakllantirishga qaratilgan talabalarni hukumat siyosatiga muvofiq tarbiyalash texnologiyalarini egallashi dolzarbdir.

Zamonaviy tarbiyalash texnologiyasi — har tomonlama yondashuvni amalga oshiradi va quyidagi majburiy talablarga rioya qiladi: Tarbiyalanuvchilarga 3 yo'nalish bo'yicha — tafakkuriga, sezgilariga va xulqiga ta'sir etiladi.

Shaxsning ma'lum sifatlari amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi. Bu ishlar yaqqol ko'rinishdagi ko'p yoqlik bo'lishi, bir vaqtning o'zida aqliy, jismoniy, xulqiy, estetik va mehnat tarbiyasini uzviylik asosida olib borishi zarur. Har yoqlama yaxlit tarbiyaviy yondashuv tarbiyachining tizimli munosabatini va boshqaruvini taqozo qiladi. Boshqaruv tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi tashqi va ichki omillarni va ularning o'zaro ta'sirini inobatga olingandagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shu bois u omillar haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni o'quv muassasalariga olib kirish zarurligi uqtirilgan. Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg'ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo'yicha rejalarini aniq belgilashga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi.

Xulosa qilib aytish lozimki, shaxsga ta'lim va tarbiya berishda nafaqat ta'lim oluvchiga ta'limning yo'naltirilishi, balki o'qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi muhimdir. Bunday hollarda o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Ta'lim tizimida kompetentli yondashuv ta'lim islohotlarining konseptual asoslari sifatida qabul qilinishi, ta'lim tizimiga kompetentli yondashuvning joriy etilishi ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish shakli, o'qitish usullari, pedagogik va axborot texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi rolida jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. O'qituvchining kasbiy kompetentligini tarkib toptirish uchun pedagogik oliy ta'limda tub o'zgarishlarni amalga oshirish kerak. Oliy ta'lim Davlat ta'lim standart, o'quv dasturi va darsliklarni takomillashtirish yo'nalishida muayyan ishlar olib borilayotgan bir paytda, mavjud an'anaviy mazmundan voz kechish qiyin kechsa-da, ta'lim mazmunini yanada aniqlashtirish lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Семина Е.А. (2010). Компетентностная модель выпускника педагогического вуза — будущего учителя математики. Альманах современной науки и образования. – № 5 (36). – С. 133-135.
2. Митина Л.М. (2004). Психология труда и профессионального развития учителя. – М.: Академия. – 320 с.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2003. – 174 b.
4. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. Psixol. fan.nom. diss...avtoreferat. – T., 2002. – 22 b.
5. Ахлидинов Р. Социально-Педагогические основы управления качеством общего среднего образования. Автореф. дис...д-ра пед.наук. – Т., 2002. – 44 б.
6. M.Usmonboeva, G.Anorkulova, G.Shamaripxodjaeva “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o'quv uslubiy majmua. T., 2015. – 14-15-b.
7. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: “Iste'dod”, 2008. – 180 b.
8. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2013. – 128 b.
9. Nizomxonov S.A., Madaminov I. Pedagogning kasbiy faoliyatida axborot kommunikativ kompetentlikni oshirish yo'llari. // Zamonaviy ta'lim” jurnali. – 2014, – №10. – 14-15-b.



ИЖТИМОЙ ДАВЛАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ СОЦИОСУБСТАНЦИОНАЛ МОҲИЯТИ

Миркомил Атавуллаев,
Ўзбекистон Миллий университети
“Ҳуқуқий фанлар” кафедраси доценти, ф.ф.д (PhD)

Аннотация

Ушбу мақолада ижтимоий давлат тушунчаси ва унинг социосубстанционал моҳияти, ижтимоий борлиқдаги ўрни ва гносеологик масалалари унинг субстанционал асоси, имманент белгилари ва ташиқи, ички алоқалари орқали таъқиқ қилиниши зарурлиги таъкидланади. Мақолада давлатнинг турли кўринишлар ҳам таҳлил қилиниб унга алоҳида номлар асосида таъриф берилган. Мақоланинг яна бир асосий жиҳатларидан бири ижтимоий давлатнинг сиёсий-фалсафий жиҳатлари ҳақида ҳам таҳлилий маълумотлар берилди. Давлатнинг турли йўналишдаги кўринишларига муаллиф томонидан муносабат, тақлиф ва хулосалар таъкидлаб ўтилган.

Калит сўзлар: давлат, имманент, универсал, адолатли давлат, ҳуқуқий давлат, идеал давлат, демократик давлат, инсонпарвар давлат, ахлоқий давлат, фаровонлик давлати, ижтимоий федератив давлат, социалистик давлат.

Аннотация

В данной статье подчеркивается, что понятие социального государства и его социально-содержательная природа, а также гносеологические вопросы социального существования должны изучаться через его содержательную основу, имманентные признаки, внешние и внутренние связи. В статье анализируются и определяются различные формы государства, основанные на разных названиях. Одним из основных аспектов статьи являются аналитические сведения о политико-философских аспектах социального государства. Подчеркивается авторское отношение, предложения и выводы к взглядам государства в разных направлениях.

Ключевые слова: государство, имманентное, универсальное, справедливое государство, правовое государство, идеальное государство, демократическое государство, гуманное государство, моральное государство, государство всеобщего благосостояния, социальное федеративное государство, социалистическое государство.

Annotation

This article emphasizes that the concept of a social state and its socially substantive nature, as well as epistemological issues of social existence, should be studied through its substantive basis, immanent features, external and internal connections. The article analyzes and defines various forms of state based on different names. One of the main aspects of the article is analytical information about the political and philosophical aspects of the welfare state. The author's attitude, suggestions and conclusions to the views of the state in different directions are emphasized.

Keywords: state, immanent, universal, just state, legal state, ideal state, democratic state, humane state, moral state, welfare state, social federal state, socialist state.